O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Shermatov Jaxongir Rasulovich

2026 - yil 13 - martdagi 275628 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bo‘zsuv kanalining Yunusobod tumani Minor, Matonat va Qashgoar mahallalaridan o‘tgan qismida sayilgoh tashkil etish (lotoklar o‘rnatish, piyodalar yo‘lagi qurish, ko‘cha chiroqlari otrnatish, o‘rindiqlar o‘rnatish, ko‘kalamzorlashtirish, velosiped yo‘lagi, sug‘orish tarmoqlari)
Buyurtmachi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK
Bosh loyihachi: "ORIGINAL PROJECT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi: Tender savdolari orqali aniqlanadi
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 111046

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-avgustdagi “Tuman (shahar)larda iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 495-sonli qarori.
1.2. Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining 2025-yil 25-sentabrdagi VII-15-147-14-0-K/25-sonli qarori.
1.3. Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B. S. Raxmonov tomonidan 2025-yil 4-dekabrda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan va Toshkent shahar kanallardan foydalanish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish boshqarmasi, Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi” DUK hamda loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalashtirish topshirig‘i.
1.4. 2025-yil 11-noyabrda taqdim etilgan 1726-1726266-246318-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.
1.5. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MCHJ tomonidan 2026-yil 12-yanvarda taqdim etilgan 26266153602-sonli texnik shartlar.
1.6. Toshkent shahar kanallardan foydalanish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirtsh boshqarmasining 2026-yil 30-yanvardagi 63-sonli xati.

1.7. Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi” DUK va “Original Project” MChJ o‘rtasida 2025-yil 27-noyabrda rasmiylashtirilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 207692-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha hujjatlari “ishchi loyiha” bosqichida quyidagi qismlardan iborat.

- Loyihaning umumiy tushuntirish xati.
- Loyiha bosh rejasi (Albom-GP).
- Arxitektura qurilish yechimlari (Albom-AS).
- Elektr ta’minoti (Albom-EO).
- Sug‘orish tizimi (Alobom-PV).
- Video kuzatuv tizimi (Albom-VN).
- Lokal hisoblash tizimi (Albom-LVS).
- Qurilishning boshlang‘ich smeta hisob-kitoblari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish obekti hududining o‘ziga xos xususiyatlari.

“Bo‘zsuv kanalining Yunusobod tumani Minor, Matonat va Qashgoar mahallalaridan o‘tgan qismida sayilgoh tashkil etish (lotoklar o‘rnatish, piyodalar yo‘lagi qurish, ko‘cha chiroqlari otrnatish, o‘rindiqlar o‘rnatish, ko‘kalamzorlashtirish, velosiped yo‘lagi, sug‘orish tarmoqlari)” obekti Toshkent shahar, Yunusobod tumanida joylashgan.

- Tashqi havoning hisobiy qishki harorati-minus 16C
- Hududning zilzilabardoshlik ko‘rsatkichi-9 ball.
- Shamolning tezligi-0,73 kPA (73 kg/m²).
- Qorning og‘irligi-0,50 kPA (50 kg/m²).
- Tuproqni muzlashining maksimal chuqurligi-0,7 metr.
- Cho‘kish bo‘yicha tuproq sharoitlarining turi-I (birinchi).
- Yer yuzasidan 10,0 metr chuqurlikda yer osti suvlari ochilmagan.

3.2. Bosh reja. Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish yechimlari.

Ishchi loyiha bo‘yicha Sayilgoh ko‘chasi va qayta ta’mirlash ishlari Yunusobod tumani hududidan o‘tgan Anhor kanalining Nurafshon kichik xalqa yo‘lidan Alisher Navoiyi ko‘chasigacha bo‘lgan qismida olib boriladi. Kanal atrofida mavjud noturar-joy binolari, savdo va maishiy xizmat ko’rsatish binolari va dam olish maydonchalari joylashgan. Ishchi loyiha va loyihalash topshirig‘i bo‘yicha hududda quyidagi ishlar olib boriladi ya’ni, piyodalar yo‘lini qurish va velosiped yo‘llarini tashkil qilish, lotoklar o‘rnatish, yengil konstruktsiyali muzqaymoq sotuvchi do‘konchalar o‘rnatish, kichik me’moriy shakllar o‘rnatish (skameykalar va chiqindi qutilarini o‘rnatish), bolalar maydonini qurish, kanal ustidan yangi ko‘priklar qurish, videokuzatuv va Wi-Fi maydonchalarini tashkil qilish, metall panjaralar o‘rnatiladi va ularning osti granit bilan qoplanadi. Bundan tashqari irrigatsiya va ichimlik suvlari quvurlarini yotqizish, irrigatsiya tizimlari va tashqi yoritish uskunalari va tizimi qayta tiklanadi, daraxtlar, gullar va maysalar ekiladi ko‘cha obodonlashtiriladi. Daraxtlar, gullar va maysalarni sug‘orish tizimi tashkil etiladi.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Umumiy maydon-43 119,4 m2.

Piyodalar yo’lagi umumiy maydoni-15 876,0 m2.

Piyodalar yo’lagi umumiy uzunligi-2878,0 m2.

Ko’kalamzor hududi maydoni-2 7243,4 m2.

3.3. Arxitektura-qurilish yechimlari.

Ko‘priklar.

Ko‘priklar (2 ta)-uzunligi-20,0 metr, eni-2,0 metr. Ko‘prik metall konstruktsiyada bajarilgan va balandligi 1,5 metr bo‘lgan metall panjarali to‘siq o‘rnatiladi.

Dam olish soyabonlari.

Dam olish soyabonlari-reja bo‘yicha har-xil shaklda va metall konstrutsiyada bajarilgan va usti profnastil va pol bruschatka plitalar bilan qoplanadi.

Skameykalar.

Skameykalar-har-xil shaklda, metalldan yasalgan va yog‘och reykalar bilan qoplanadi.

Bundan tashqari boshqa bajariladigan ishlar loyihalash topshirig‘i bandlariga asosan qurilish jarayonida aniqlanadi.

3.4. Nogironli bo‘lgan shaxslarga qulaylik yaratish loyihasi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 2025-yil 17-yanvarda tasdiqlangan va Davlat dusturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika shtabi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan 1-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoniga asosan nogironli bo‘lgan shaxslarga qulayliklar yaratish maqsadida bosh reja bo‘yicha hududning ichki yo‘laklariga kontrastli sariq rangli chiziqlar chizilgan, taktil plita qoplamalari va panduslar tashkil qilingan hamda bir qancha ish turlari loyihalashtirilgan.

3.5. Konstruktsiya yechimlari.

Ko‘prik o‘qlari bo‘yicha umumiy uzunligi 20,0 metr bo‘lgan yoy shaklidagi ko‘prik.

Ko‘prik tayanchlarining poydevorlari-quyma temir-betondan, alohida turadi.

Ko‘prik konstruksiyalari metalldan yasalgan.

Ko‘prikning piyodalar qismi qoplamasi-profnastildan yasalgan olinmaydigan qolip bo‘yicha quyma temir-betondan.

Ko‘prik panjaralari metalldan yasalgan.

3.6. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Obyektning yakuniy smeta xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11-iyun 2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan. Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko‘rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa harajatlarisiz QQS bilan hisoblanganda-9 169 463 500 ming so‘mni tashkil etdi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihalaniyotgan obyektning sug‘orish tizimi, elektr ta’minoti tizimi va video kuzatuv tizimi hamda lokal hisoblash tizimlari tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar hamda loyihalash topshirig‘iga muvofiq ta’minlash ko‘zda tutilgan.

4.2. Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha bosh rejasi buyurtmachi tomonidan tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan hamda Toshkent shahar kanallardan foydalanish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish

boshqarmasi bilan kelishilgan.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining 2026-yil 23-fevraldagi 01-02/14-10653-sonli ijobiy xulosasi.

5.3. Loyiha-smeta hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, smeta qiymatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **9 169 463 500** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **413 016 863** so'mga kamaytirilib,

8 756 446 637 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **7 399 118 648** so'm

Asbob-uskunalar: **419 137 278** so'm

QQS: **938 190 711** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida soha ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi resurs smeta me’yorlari, qurilish materiallarining narxlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblash natijasida o‘zgartirildi.

Shu jumladan, qiymati 419 137 278 so‘m bo‘lgan import qilingan texnologik asbob-uskunalar va jihozlarni xarid qilish va yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar ekspertiza tomonidan ko‘rilmadi.

6.2. Shuningdek, buyurtmachi, loyiha va bosh pudrat tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni talablariga qat’iy rioya qilinsin.

6.3. Smeta hujjatlariga asosan qurilish ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan “ Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan “Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-sonli va ShNQ 2.07.02-22 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablariga amal qilinsin.

6.6. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori Nizomining 3-bob, 29-bandiga muvofiq, Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.8. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

6.9. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, “Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bo‘zsuv kanalining Yunusobod tumani Minor, Matonat va Qashgoar mahallalaridan o‘tgan qismida sayilgoh tashkil etish (lotoklar o‘rnatish, piyodalar yo‘lagi qurish, ko‘cha chiroqlari otrnatish, o‘rindiqlar o‘rnatish, ko‘kalamzorlashtirish, velosiped yo‘lagi, sug‘orish tarmoqlari)” obyektining ishchi loyiha hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Adjigafarova Remziye Ablyayevna, Nurmetov Timur Kurambayevich, Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Sagatov Mirabid Xxx, Yermakova Olga Yevgenevna, Vakurova Irina Vladimirovna, Ishimova Raxila Mutalevna

Bosh ekspert **KASIMXODJAYEV SAIDJAMOLIDDIN SAYDASRAROVICH**